

RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Abdualilov Muzaffar Abduzoiro'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot raqamli bank xizmatlarini kengaytirishda xorijiy tajribaning ahamiyati va uni O'zbekiston bank tizimi sharoitida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida xorijiy raqamli banklar faoliyati hamda mahalliy bank amaliyoti qiyosiy tahlil qilinib, raqamli xizmatlar diversifikatsiyasining bank moliyaviy samaradorligi, daromadlar tarkibi va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'siri baholandi. Tadqiqot natijalari raqamli bank xizmatlarining kengayishi bank daromadlarining diversifikatsiyasiga, operatsion samaradorlikning oshishiga va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Olingan xulosalar O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiyani jadallashtirish va FinTech ekotizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: raqamli bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, xorijiy tajriba, bank samaradorligi, moliyaviy inklyuziya, FinTech.

Abstract

This study examines the role of foreign experience in expanding digital banking services and assesses the possibilities of its application within the context of Uzbekistan's banking system. The research is based on a comparative analysis of foreign digital banks and domestic banking practices, evaluating the impact of digital service diversification on banks' financial performance, revenue structure, and profitability indicators. The findings demonstrate that the expansion of digital banking services contributes to revenue diversification, improved operational efficiency, and enhanced financial stability. The results provide a methodological basis for

accelerating digital transformation and developing the FinTech ecosystem in Uzbekistan's banking sector.

Keywords: digital banking services, digital transformation, foreign experience, banking efficiency, financial inclusion, FinTech.

Аннотация

Настоящее исследование посвящено анализу зарубежного опыта расширения цифровых банковских услуг и оценке возможностей его применения в условиях банковской системы Узбекистана. В рамках исследования проведён сравнительный анализ деятельности зарубежных цифровых банков и практики отечественных банков, а также оценено влияние диверсификации цифровых услуг на финансовые результаты, структуру доходов и показатели рентабельности банков. Результаты исследования показывают, что расширение цифровых банковских услуг способствует диверсификации доходов, повышению операционной эффективности и укреплению финансовой устойчивости банков. Полученные выводы могут быть использованы в качестве методологической основы для ускорения цифровой трансформации и развития FinTech-экосистемы в банковском секторе Узбекистана.

Ключевые слова: цифровые банковские услуги, цифровая трансформация, зарубежный опыт, эффективность банков, финансовая инклюзия, FinTech.

Kirish

So'nggi yillarda global moliya tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank xizmatlarining ko'rsatish mexanizmlari va institutsional tuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda. Jahon banki va xalqaro moliyaviy tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, "bugungi kunda dunyo bo'yicha bank operatsiyalarining 65–70 foizi raqamli kanallar orqali amalga oshirilmogda, rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 85 foizdan oshgan"¹. Xususan, mobil banking foydalanuvchilari soni 2024-yilga kelib

¹ World Bank. *Digital Financial Services*. Washington, DC: World Bank Group, 2023. <https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion>

global miqyosda 2,7 milliarddan ortiqni tashkil etib, raqamli bank xizmatlarining moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi rolini yanada kuchaytirmoqda.

Raqamli bank xizmatlari nafaqat banklarning operatsion xarajatlarini qisqartirish, balki mijozlarga tezkor, shaffof va individual ehtiyojlarga mos xizmatlar ko'rsatish imkonini bermoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ochiq bank (Open Banking) texnologiyalarining joriy etilishi natijasida yangi moliyaviy mahsulotlar soni sezilarli darajada oshgan, AQSh va Osiyo mamlakatlarida esa FinTech kompaniyalari bilan hamkorlik bank sektorining innovatsion rivojlanishida muhim omilga aylangan. Natijada, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalar asosida shakllangan raqamli bank xizmatlari bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur jarayonlar rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayoni so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashib, masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar va elektron to'lov tizimlari keng joriy etilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni so'nggi besh yil ichida bir necha baravarga oshgan bo'lib, bank mijozlarining katta qismi to'lov va hisob-kitob operatsiyalarini raqamli kanallar orqali amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, bank xizmatlarini to'liq raqamlashtirish, innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish va FinTech ekotizimini rivojlantirish borasida hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli bank xizmatlarini kengaytirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning samarali mexanizmlarini aniqlash hamda O'zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishda ilg'or xalqaro yondashuvlarni aniqlash va ularni milliy bank tizimida qo'llash imkoniyatlarini baholashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda raqamli bank xizmatlari bank tizimi samaradorligini oshiruvchi va moliyaviy inklyuziyani kengaytiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Arner, Barberis va Buckleylar “raqamli texnologiyalar bank xizmatlarining institutsional modelini o‘zgartirib, an’anaviy bank amaliyotidan innovatsion moliyaviy ekotizimga o‘tishda asosiy harakatlantiruvchi kuch ekanligini ta’kidlaydi”². Gomber esa “raqamli bank xizmatlari mijozlarga yo‘naltirilganlikni kuchaytirib, banklarning raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyatga ega”³ ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Shu bilan birga, ayrim xorijiy tadqiqotlarda raqamli transformatsiya jarayonining murakkab jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, Bank for International Settlements hisobotida “banklar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishda institutsional moslashuv, kiberxavfsizlik va texnologik infratuzilma bilan bog‘liq cheklovlar mavjud”⁴ ligi qayd etilgan. OECD tadqiqotlarida esa “raqamli bank xizmatlarining samaradorligi davlatning tartibga solish siyosati va FinTech ekotizimining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tiladi”⁵. Mazkur tadqiqotlar asosan rivojlangan mamlakatlar bank tizimi tajribasiga tayanib, raqamli bank xizmatlarining yuqori texnologik muhitdagi rivojlanish xususiyatlarini yoritib beradi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham so‘nggi yillarda raqamli bank xizmatlari masalasi keng muhokama qilinmoqda. O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlarida raqamli bank xizmatlari bank faoliyatini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirishning muhim vositasi sifatida baholanadi. Xususan, ayrim tadqiqotlarda masofaviy bank xizmatlarini joriy etish orqali mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni optimallashtirish va bank xarajatlarini qisqartirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlarda raqamli transformatsiya jarayonida normativ-

² Arner, D. W., Barberis, J. N., & Buckley, R. P. (2016). The evolution of FinTech: A new post-crisis paradigm? *Georgetown Journal of International Law*, 47(4), 1271–1319.

³ Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital finance and FinTech: Current research and future research directions. *Journal of Business Economics*, 87(5), 537–580. <https://doi.org/10.1007/s11573-017-0852-x>

⁴ Bank for International Settlements. (2022). *Sound practices: Implications of fintech developments for banks and bank supervisors*. Basel: BIS. <https://www.bis.org>

⁵ OECD. (2022). *Digital transformation in financial services*. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org>

huquqiy baza, kadrlar salohiyati va texnologik infratuzilmani rivojlantirish zarurati alohida ta'kidlanadi.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy adabiyotlarda raqamli bank xizmatlari asosan rivojlangan mamlakatlar misolida chuqur o'rganilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotlarda ushbu jarayon ko'proq tavsifiy yondashuv asosida yoritilgan. Raqamli bank xizmatlarini kengaytirishda xorijiy tajribani tizimli ravishda tahlil qilish, uni O'zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirish hamda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan kompleks ilmiy izlanishlar yetarli darajada shakllanmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda raqamli bank xizmatlarini kengaytirish jarayonining bank faoliyati samaradorligiga ta'siri xorijiy va mahalliy banklar misolida o'rganildi. Tadqiqotda ikkilamchi axborot manbalari asosida iqtisodiy-statistik, tahliliy va taqqoslama usullardan foydalanildi. Banklarning raqamli xizmatlari tarkibi funksional yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning diversifikatsiya darajasi va mijozlarga yo'naltirilganligi baholandi. Moliyaviy natijalarni baholashda daromadlar tarkibi, operatsion samaradorlik, foydalilik hamda aktivlar va depozitlar dinamikasi asosiy mezon sifatida olindi. Shuningdek, bank kapitali va aktivlaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda rentabellik ko'rsatkichlari (ROA va ROE) qo'llanildi. Ushbu metodologik yondashuv raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish bilan bank moliyaviy barqarorligi va samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Ushbu bo'limda raqamli bank xizmatlarini kengaytirish jarayonining bank faoliyati natijadorligiga ta'siri xorijiy va mahalliy tajriba misolida tizimli tahlil qilinadi. Tahlilning asosiy e'tibori raqamli xizmatlar portfeli kengayishi natijasida bank daromadlari tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar, operatsion samaradorlik dinamikasi hamda bankning moliyaviy barqarorligi va rentabelligi ko'rsatkichlarining

shakllanish tendensiyalarini aniqlashga qaratiladi. Bunda raqamli xizmatlarning funksional diversifikatsiyasi (to'lov-tranzaksion xizmatlar, hisob va karta mahsulotlari, jamg'arma-kredit yechimlari hamda qo'shimcha raqamli servislar) bankning daromad modeliga qanday ta'sir qilayotgani, xususan foizli va komission daromadlar nisbatidagi siljishlar orqali izohlanadi. Shuningdek, aktivlar va depozitlar hajmidagi o'sish sur'atlari bankka bo'lgan ishonch hamda raqamli kanallar orqali jalb qilinayotgan mijozlar bazasining kengayishini ifodalovchi indikator sifatida baholanadi. Natijada, xorijiy va mahalliy bank amaliyoti qiyosida raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda milliy bank tizimi uchun amaliy xulosalar shakllantiriladi.

1-jadval

Revolut bank: raqamli bank xizmatlari⁶

Xizmat turi	Ta'rif / Funksiya	Izohlar / Misollar
Hisob-raqam ochish va boshqarish	Revolut ilovasida to'liq onlayn hisob ochish va boshqarish	24/7 ilova orqali moliyaviy operatsiyalarni boshqarish (Revolut)
Pul yuborish va qabul qilish (Transfers)	Tezkor ichki va xalqaro pul o'tkazmalari	160+ davlatga tez va qulay pul yuborish (Revolut)
Valyuta ayirboshlash	30+ valyutada mablag' saqlash va konvertatsiya	Raqamli hisobda bir nechta valyutalar bilan ishlash (Revolut)
Kartalar – Fizik / Virtual	Mastercard/Visa kartalar bilan to'lovlar	Har kuni xaridlar uchun jismoniy va virtual kartalar (Revolut)
Tez To'lovlar (P2P)	Revolut foydalanuvchilari o'rtasida darhol to'lovlar	Do'stlarga darhol pul yuborish funksiyasi (Revolut)

⁶ www.revolut.com. Revolutning veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tejamkorlik (Savings)	Daromad bilan jamg'arma hisoblari	Foiz stavkalari bilan jamg'arma (APY) imkoniyati (Revolut)
Byudjet va moliyaviy boshqaruv vositalari	Xarajat va reja tuzish vositalari	Hisob-kitoblarni kategoriyalash, byudjet boshqaruvi (Revolut)
Investitsiyalar (Stocks/ETFs)	Aktsiyalar va fond bozorida investitsiya	Investitsiya portfellarini shakllantirish (Revolut)
Kripto aktivlar savdosi	Kripto sotib olish, sotish, ushlab turish	210+ token bo'yicha savdo (Revolut X) (Revolut)
Hisob-raqamlararo o'tkazmalar (Cross- border)	Xalqaro to'lovlar bilan ishlash	Zaif almashinuv xarajatlari bilan global transferlar (Revolut)
Qo'shimcha xizmatlar (Lifestyle)	eSIM, sayohat (travel) xizmatlari va sodiqlik tizimi	Xizmatlar ilova orqali integratsiyalangan (Revolut)

1-jadvalda keltirilgan Revolut bankining raqamli bank xizmatlari tarkibi bank faoliyatining to'liq raqamli modelga asoslanganligini ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinadiki, Revolut an'anaviy bank xizmatlarining deyarli barcha turlarini yagona mobil platforma orqali taqdim etib, hisob-raqam ochishdan tortib xalqaro pul o'tkazmalari, valyuta ayirboshlash, investitsiya va kripto aktivlar savdosigacha bo'lgan xizmatlarni integratsiyalashgan holda amalga oshirmoqda. Ayniqsa, tezkor P2P to'lovlar, ko'p valyutali hisoblar va virtual kartalar kabi xizmatlar bank xizmatlarining tezkorligi va qulayligini oshirib, mijozlar faolligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, byudjetni boshqarish, jamg'arma va investitsiya xizmatlarining mavjudligi Revolutning faqat to'lov vositasi emas, balki mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini kompleks boshqarishga yo'naltirilgan raqamli bank ekotizimi sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Mazkur xizmatlar to'plami raqamli bank xizmatlarini

kengaytirish orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va mijozlarga yo‘naltirilganlikni oshirish imkonini yaratadi.

2-jadval

Revolut bank faoliyatining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari⁷⁷, (ming yevroda, yil oxiri holatiga)

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024
Foizli va komission daromadlar (jami)	666	487	1 061	1 758
		,952	,983	,260
– Foiz daromadi	661	40 ,369	351 ,044	589 ,312
– Komission daromad	5	446	710 ,939	1 168
		,583		,948
Operatsion daromad (Net operating income)	–992	375	885 ,696	1 464
		,642		,661
Operatsion xarajatlar (jami)	6 ,267	341	786 ,265	1 331
		,470		,534
Soliqdan oldingi foyda (zarar)	–7	34 ,172	99 ,431	133 ,127
	,259			
Sof foyda (zarar)	–6	26 ,029	78 ,375	100 ,528
	,173			
Jami aktivlar	842	8 768	12 080	20 287
	,698	,477	,336	,780
Mijozlar depozitlari (Due to customers)	703	8 263	10 661	17 880
	,785	,085	,324	,484
ROE, %	–10.89	8.32	17.50	12.95
ROA, %	–1.33	0.38	0.75	0.62

⁷⁷ www.revolut.com. Revolutning veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
https://www.revolut.com/reports-and-results/?categoryFilter_0263104a-70a5-4773-8a8e-81f529934531=24d74287-c2c1-4d62-8a9f-238b222915f2&yearFilter_0263104a-70a5-4773-8a8e-81f529934531

2-jadvalda keltirilgan Revolut bankining 2021–2024-yillar bo'yicha asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari raqamli bank xizmatlarini kengaytirishning bank moliyaviy barqarorligi va samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini yaqqol namoyon etadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilayotgan davrda Revolut bank faoliyati raqamli xizmatlar asosida jadal rivojlanib, moliyaviy natijalarning barqaror yaxshilanishi bilan tavsiflanadi.

Avvalo, foizli va komission daromadlarning o'sish dinamikasi raqamli bank xizmatlarining kengayishi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rish mumkin. 2021-yilda mazkur ko'rsatkich atigi 666 ming yevroni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib u 1 758 260 ming yevroga yetgan. Ayniqsa, komission daromadlarning keskin o'sishi e'tiborga loyiq bo'lib, bu holat Revolut bankining to'lov xizmatlari, kartalar, xalqaro pul o'tkazmalari va boshqa raqamli xizmatlarga tayangan biznes modelining ustunligini ko'rsatadi. Foiz daromadlarining ham barqaror o'sishi raqamli kreditlash va depozit mahsulotlarining rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Operatsion daromadlar tahlili bank faoliyatida sifat jihatidan yangi bosqich boshlanganini ko'rsatadi. 2021-yilda operatsion daromad manfiy qiymatga ega bo'lgan bo'lsa, 2022-yildan boshlab u ijobiy tendensiyaning namoyon etib, 2024-yilda 1 464 661 ming yevroga yetgan. Bu raqamli bank xizmatlarining miqyosi kengayishi hisobiga daromadlar bazasining sezilarli ravishda mustahkamlanganini anglatadi.

Shu bilan birga, operatsion xarajatlar hajmining oshishi bankning faol o'sish strategiyasi bilan izohlanadi. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, texnologik platformalarni kengaytirish va kadrlar salohiyatiga yo'naltirilgan xarajatlar qisqa muddatda xarajatlarning oshishiga olib kelgan bo'lsa-da, uzoq muddatda bu investitsiyalar bank samaradorligining ortishiga xizmat qilgan. Natijada, soliqdan oldingi foyda va sof foyda ko'rsatkichlari 2022–2024-yillarda barqaror ijobiy darajada shakllangan.

Aktivlar va mijozlar depozitlari dinamikasi Revolut bankining raqamli bank sifatidagi jozibadorligini yaqqol ko'rsatadi. 2021-yildan 2024-yilgacha jami aktivlar hajmi bir necha barobarga oshib, 20 287 780 ming yevroga yetgan. Xuddi shunday,

mijozlar depozitlarining tez sur'atlarda o'sishi bankka bo'lgan ishonchning ortib borayotganidan va raqamli bank xizmatlarining ommaviylashganidan dalolat beradi.

Rentabellik ko'rsatkichlari ham mazkur jarayonni tasdiqlaydi. ROE va ROA ko'rsatkichlari 2021-yildagi manfiy qiymatlardan 2023–2024-yillarda ijobiy va nisbatan barqaror darajaga chiqdi. Bu holat raqamli bank xizmatlarini kengaytirish Revolut bankining moliyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Revolut bank misolida raqamli bank xizmatlarini kengaytirish bank daromadlarining diversifikatsiyasiga, operatsion samaradorlikning oshishiga hamda moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib kelgan. Mazkur tajriba raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonida xorijiy banklar amaliyotining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi va uni rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimi, jumladan O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash zarurligini ko'rsatadi.

3-jadval

“ANOR BANK” AJ: raqamli bank xizmatlari⁸

Xizmat turi	Ta'rif / Funksiya	Izohlar / Misollar
Hisob-raqam ochish va boshqarish	Mobil ilova orqali masofadan hisob ochish va boshqarish	Anor Bank mobil ilovasi orqali 24/7 hisobni boshqarish
Pul yuborish va qabul qilish (Transfers)	Ichki bank va banklararo pul o'tkazmalari	O'zbekiston banklari o'rtasida tezkor o'tkazmalar
Milliy to'lov tizimlari bilan integratsiya	HUMO va Uzcard orqali to'lovlar	Savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarida naqdsiz to'lovlar
Kartalar – Fizik / Virtual	Plastik va virtual kartalar chiqarish	Onlayn to'lovlar uchun virtual karta funksiyasi

⁸ www.anorbank.com. “ANOR BANK” AJning veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tezkor to'lovlar (P2P)	Jismoniy shaxslar o'rtasida tezkor o'tkazmalar	Telefon raqami yoki karta orqali pul yuborish
Onlayn kreditlash	Masofadan kredit mahsulotlarini rasmiylashtirish	Mobil ilova orqali mikroqarz va iste'mol kreditlari
Jamg'arma va omonatlar	Raqamli omonat va jamg'arma hisoblari	Onlayn ochiladigan depozit mahsulotlari
Kommunal va servis to'lovlari	Elektron to'lovlar majmuasi	Kommunal, aloqa va boshqa xizmatlar uchun to'lovlar
Byudjet va moliyaviy nazorat vositalari	Xarajatlarni kuzatish va tahlil qilish	To'lovlar tarixini ko'rish va monitoring
Qo'shimcha raqamli xizmatlar	Mobil ilova orqali bank xizmatlari integratsiyasi	SMS-xabarnoma, xavfsizlik sozlamalari

3-jadvalda keltirilgan “ANOR BANK” AJning raqamli bank xizmatlari tarkibi bank faoliyatining chakana bank xizmatlariga yo'naltirilgan raqamli model asosida shakllanganini ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinadiki, bank mobil ilova orqali hisob-raqam ochish va boshqarish, ichki va banklararo pul o'tkazmalari, milliy to'lov tizimlari (HUMO va Uzcard) bilan integratsiya, shuningdek, P2P to'lovlar kabi asosiy raqamli xizmatlarni to'liq qamrab olgan. Onlayn kreditlash hamda raqamli omonat va jamg'arma mahsulotlarining mavjudligi Anor Bankning mijozlarga qulay va tezkor moliyaviy yechimlar taklif etishga intilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kommunal va servis to'lovlari, byudjetni nazorat qilish vositalari hamda qo'shimcha raqamli xizmatlar bank xizmatlarining kundalik foydalanishga yo'naltirilganligini kuchaytiradi. Umuman olganda, Anor Bankning raqamli xizmatlari mahalliy bank tizimi sharoitida moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va bank xizmatlarining qulayligini oshirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

4-jadval

“ANOR BANK” AJ faoliyatining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari⁹, (mln. so‘mda, yil oxiri holatiga).

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024
Foizli va komission daromadlar (jami)	114	392	503 159.9	1 084 351.6
– Foiz daromadi	576.5	274.5		
	186	577	503 159.9	1 833 281.9
	426.8	274.2		
– Komission daromad	50 862.9	392	447 886.0	447 886.0
		274.5		
Operatsion daromad (Net operating income)	39 884.4	188	392 274.5	503 159.9
		718.8		
Operatsion xarajatlar (jami)	194	231	545 866.1	378 864.9
	275.8	569.3		
Soliqdan oldingi foyda (zarar)	–80	–32	146 012.6	113 244.3
	655.8	768.3		
Sof foyda (zarar)	–80	–32	113 244.3	80 085.1
	655.8	768.3		
Jami aktivlar	1 090	4 244	9 716	9 716 797.2
	855.5	236.3	797.2	
Mijozlar depozitlari	864	3 688	8 742	8 742 526.2
	529.0	263.2	526.2	
ROE, %	manfiy	manfiy	17.1	12.9
ROA, %	manfiy	manfiy	1.16	0.82

4-jadvalda keltirilgan “ANOR BANK” AJning 2021–2024-yillardagi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari bank faoliyatining raqamli bank modeli asosida bosqichma-

⁹ www.anorbank.com. “ANOR BANK” AJning veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
<https://www.anorbank.uz/uz/about/investors/audit-report/#2021>

bosqich barqarorlashib borganini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrning dastlabki ikki yilida bank faoliyati shakllanish bosqichida bo'lib, yuqori operatsion xarajatlar va raqamli infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar natijasida zarar qayd etilgan. Xususan, 2021–2022-yillarda sof foydaning manfiy bo'lishi bankning bozorga kirish va xizmatlar portfelini kengaytirish jarayoni bilan izohlanadi.

Foizli va komission daromadlar dinamikasi raqamli bank xizmatlarining kengayishi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. 2021-yilda 114,6 mlrd so'mni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 1 084,4 mlrd so'mga yetib, bir necha baravar oshgan. Ayniqsa, komission daromadlarning yuqori sur'atlarda o'sishi bankning to'lov xizmatlari, kartalar, P2P o'tkazmalar va boshqa raqamli operatsiyalarga tayangan biznes modelining ustunligini tasdiqlaydi. Foiz daromadlarining keskin oshishi esa raqamli kreditlash va depozit mahsulotlari hajmining kengayganidan dalolat beradi.

Operatsion daromadlarning ijobiy tendensiyaga o'tishi bank faoliyatida sifat jihatidan yangi bosqich boshlanganini ko'rsatadi. 2021-yilda nisbatan past bo'lgan operatsion daromad 2023–2024-yillarda sezilarli darajada oshib, raqamli xizmatlar orqali yaratilayotgan daromadlar bankning asosiy moliyaviy manbaiga aylanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, operatsion xarajatlar hajmi 2023-yilda yuqori darajaga chiqqan bo'lsa-da, 2024-yilda ularning nisbiy qisqarishi operatsion samaradorlikning oshganidan dalolat beradi.

Bankning foydalilik ko'rsatkichlari ham mazkur jarayonni tasdiqlaydi. 2023-yildan boshlab soliqdan oldingi va sof foydaning ijobiy qiymatga ega bo'lishi Anor Bankning raqamli bank modeli moliyaviy jihatdan barqaror bosqichga o'tganini ko'rsatadi. ROE va ROA ko'rsatkichlarining 2023–2024-yillarda ijobiy va barqaror darajada shakllanishi bank kapitali va aktivlaridan foydalanish samaradorligi oshganini anglatadi.

Aktivlar va mijozlar depozitlari hajmining tez sur'atlarda o'sishi bankka bo'lgan ishonchning ortib borayotganidan dalolat beradi. 2021-yildan 2024-yilgacha jami aktivlar bir necha baravar oshib, 9 716,8 mlrd so'mga yetgan bo'lsa, mijozlar

depozitlarining o'sishi raqamli bank xizmatlarining ommaviylashuvi va moliyaviy inklyuziyaning kengayganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 4-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, "ANOR BANK" AJda raqamli bank xizmatlarini kengaytirish daromadlar bazasining diversifikatsiyasiga, operatsion samaradorlikning oshishiga va bank faoliyatining moliyaviy barqarorlashuviga olib kelgan. Ushbu holat xorijiy raqamli banklar tajribasi bilan uyg'un bo'lib, mahalliy bank tizimida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda raqamli bank xizmatlarini kengaytirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va uning O'zbekiston bank tizimi sharoitidagi amaliy jihatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlari zamonaviy bank tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, bank faoliyatining samaradorligi, raqobatbardoshligi va moliyaviy inklyuziyasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xorijiy tajriba, xususan Revolut bank faoliyati misolida olib borilgan tahlil raqamli bank xizmatlarini kompleks va integratsiyalashgan holda joriy etish bank daromadlarining diversifikatsiyasiga, operatsion xarajatlarning optimallashtirilishiga hamda moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib kelishini tasdiqladi. Revolut bankda to'lov xizmatlari, ko'p valyutali hisoblar, investitsiya va kripto aktivlar bilan bog'liq raqamli mahsulotlarning keng joriy etilishi komission daromadlar ulushining sezilarli darajada oshishiga sabab bo'lgan. Bu holat raqamli bank modelining yuqori darajada moslashuvchan va bozor talablariga tezkor javob bera olishini ko'rsatadi.

Mahalliy tajriba tahlili, xususan "ANOR BANK" AJ faoliyati misolida, O'zbekiston bank tizimida ham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish ijobiy moliyaviy natijalarga olib kelayotganini ko'rsatdi. Bank faoliyatining dastlabki bosqichlarida yuqori investitsion xarajatlar tufayli zarar kuzatilgan bo'lsa-da, raqamli xizmatlar ko'lamining kengayishi natijasida foizli va komission daromadlar barqaror

o'sib, bank foydali faoliyat bosqichiga o'tgan. Aktivlar va mijozlar depozitlari hajmining tez sur'atlarda oshishi bankka bo'lgan ishonchning ortib borayotganidan hamda raqamli bank xizmatlarining ommalashayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xorijiy raqamli banklar tajribasi bilan mahalliy bank amaliyoti o'rtasida funksional va texnologik farqlar mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy rivojlanish tendensiyalari uyg'un ekanligi aniqlanadi. Xususan, xorijiy banklarda raqamli xizmatlar global moliyaviy operatsiyalar va investitsion mahsulotlarga yo'naltirilgan bo'lsa, mahalliy banklarda ular asosan chakana bank xizmatlari va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga qaratilgan.

Umuman olganda, raqamli bank xizmatlarini kengaytirishda xorijiy tajribani tizimli ravishda o'rganish va uni O'zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirish bank faoliyatining samaradorligini oshirish, innovatsion moliyaviy mahsulotlar ulushini kengaytirish hamda bank tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiyani jadallashtirish va FinTech ekotizimini rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Фойдалangan адабиётлар рo'yxати

1. World Bank. *Digital Financial Services*. Washington, DC: World Bank Group, 2023.
<https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion>
2. Arner, D. W., Barberis, J. N., & Buckley, R. P. (2016). The evolution of FinTech: A new post-crisis paradigm? *Georgetown Journal of International Law*, 47(4), 1271–1319.
3. Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital finance and FinTech: Current research and future research directions. *Journal of Business Economics*, 87(5), 537–580. <https://doi.org/10.1007/s11573-017-0852-x>

4. Bank for International Settlements. (2022). *Sound practices: Implications of fintech developments for banks and bank supervisors*. Basel: BIS. <https://www.bis.org>
5. OECD. (2022). *Digital transformation in financial services*. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org>
6. www.revolut.com. Revolutning veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. https://www.revolut.com/reports-and-results/?categoryFilter_0263104a-70a5-4773-8a8e-81f529934531=24d74287-c2c1-4d62-8a9f-238b222915f2&yearFilter_0263104a-70a5-4773-8a8e-81f529934531
7. www.anorbank.com. "ANOR BANK" AJning veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. <https://www.anorbank.uz/uz/about/investors/audit-report/#2021>